



## ENTERPRISE ACTIVITY BASED ON FINANCIAL REPORTING INDICATORS EFFICIENCY EVALUTION ISSUES

**Meliyev Isroil Ismoilovich,**

*Tashkent Financial Institute of the Republic of Uzbekistan*

*Independent researcher of the «Audit» department.*

*Toshkent, O'zbekiston. Email: melievisroil1981@gmail.com*

*ORCID: 0000-0002-0976-7406*

## MOLIYAVIY HISOBOR KO'RSATKICHLARI ASOSIDA KORXONA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI

**Meliyev Isroil Ismoilovich,**

*Toshkent moliya instituti "Audit" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi.*

*Toshkent, O'zbekiston. Email: melievisroil1981@gmail.com*

*ORCID: 0000-0002-0976-7406*

### **JEL Classification: M1, M4, M41**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston amaliyotida korxona faoliyati samaradorligini baholash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, uning kirish qismida Respublikada korxona faoliyati samaradorligi tahlilining maqsad va vazifalari, mazkur sohada tadqiqot olib borish dolzarbligining mohiyati ochib berilgan. Maqolaning "munozara" qismida ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar, ular ilmiy qarashlari va muallif ilmiy g'oyalardan ular fikrlarining farqli jihatlari nazariy fikrlar asosida yoritib berilgan. Bunda, maqola mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borgan har bir iqtisodchi olimning g'oyalari aks ettirilgan manbalar bataysil aks ettirilgan. Shuningdek, maqola mazmunini yoritishda qanday tadqiqot metodlari qo'llanilganligi, mavzu bo'yicha tahlil etilgan ko'rsatkichlar va erishilgan ilmiy natijalar asosida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar mohiyati ochib berilgan.

*Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy*

*hisobot tahlili usullari, likvidlik ko'rsatkichlari, to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari, daromadlik ko'rsatkichlari, tashqi qarzga bog'liq ko'rsatkichlar va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari mazmuni va bu ko'rsatkichlarni hisoblash hamda ularni amaliyotda qo'llash masalalari muallif ilmiy izlanishlari asosida bayon etilgan.*

*Maqola muallifi o'tkazilgan tadqiqot natijalarini asosida O'zbekiston amaliyotida korxonalar faoliyat samaradorligini baholash jarayonida o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mazmuni o'rganilib, ularni ijobjiy hal etish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirgan. Maqola mavzusi mazmunini yoritishda foydalanilgan adabiyotlarga o'rnatilgan tartib asosida iqtiboslar keltirilgan. Maqola yakunida tadqiqotchi tomonidan mavzu doirasida ilmiy va amaliy xulosalar umumlashtirilib, tegishli tavsiyalar berilgan. Maqolaning shakl va mazmunini shakllantirishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'rnatilgan tartib asosida aks ettirilgan.*

**Abstract.** This article is devoted to the issues of assessing the efficiency of enterprise activity in the practice of Uzbekistan, and its introduction reveals the goals and tasks of the analysis of enterprise efficiency in the Republic, the essence of the relevance of conducting research in this field. In the "discussion" part of the article, the opinions expressed by the economists who have conducted scientific research on this topic, their scientific views, and the aspects of their opinions different from the author's scientific ideas are highlighted on the basis of theoretical opinions. In this, the sources reflecting the ideas of every economist who conducted research on the topic of the article are reflected in detail. Also, what kind of research methods were used to clarify the content of the article, the essence of the decisions that can be made based on the indicators analyzed on the topic and the achieved scientific results are revealed.

According to the results of the study, the methods of financial statement analysis, liquidity indicators, solvency indicators, profitability indicators, indicators related to foreign debt and the content of important performance indicators and the calculation of these indicators and the issues of their practical application are described on the basis of the author's scientific research.

Based on the results of the research, the author of the article studied the contents of a number of problems that await their solution in the process of evaluating the efficiency of enterprises in the practice of Uzbekistan, and formulated practical recommendations for their positive solution. Citations are given based on the established order of the literature used to cover the content of the topic of the article. At the end of the article, the researcher summarized the scientific and practical conclusions within

the topic and gave relevant recommendations. The list of literature used in forming the form and content of the article is reflected based on the established procedure.

**Kalit so'zlar.** Moliyaviy hisobot, samaradorlik ko'rsatkichlari, iqtisodiy tahlil, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy hisobot ishonchligi

**Key words.** Financial reporting, performance indicators, economic analysis, financial stability, reliability of financial statements

**Kirish.** Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlilining metodologik asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirishda firibgarliklarni aniqlash va bartaraf etish, moliyaviy hisobot ishonchligini baholashda tahliliy amallarni qo'llash, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Biroq, xalqaro standartlar talablari va ilg'or xorij tajribasiga muvofiq moliyaviy hisobot tahlilini amalga oshirish metodologiyasini tadqiq etish bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Bugungi kunda korxonaning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va to'lovga qodirligini baholash, korxonaning likvidlilik va to'lovga qodirlik bilan bog'liq qaltisliklarini baholash, korxonaning debtorlik va kreditorlik qarzlariga ta'sir etuvchi omillarni baholash, korxona mablag'larining sotib olingan tovar uchun hisob-kitob qilishga yetarliligini aniqlash, moliyaviy mustaqillikni yo'qotmaslik va yetarlicha barqaror faoliyat yuritishda qarzga olingan

kapital hajmining yuqori chegarasini aniqlash, korxona barcha xarajatlarni qoplaganidan so'ng korxona ixtiyorida qolgan yalpi foydani aniqlash masalalari iqtisodiy tahlil va boshqaruv sohasining muhim masalalaridan sanaladi. Bu esa korxona faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tadqiq etishni taqozo etadi.

**Munozara.** Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida O'zbekiston amaliyoti xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tushunarli, shaffof va ishonchli moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish va taqdim etish zaruratini yuzaga keltirdi. Biroq, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil ma'lumotlari asosida boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishda metodologik muammolar yuzaga kelmoqda.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev va boshqa iqtisodchilarining ta'kidlashicha, "...ko'pchilik tadbirkorlarimiz yangi bir ishga kirishishdan oldin uni aniq hisobkitob va nazorat tizimi zarurligi to'g'risida unchalik bosh qotirmayaptilar. Oqibatda bir muncha vaqt o'tishi bilan masala ancha jiddiyashib, moliyaviy taqchilliklar va shuning oqibatida faoliyatida uzilishlar ro'y bermoqda. Moliya-xo'jalik faoliyati holatini ifoda etiladigan axborotlar tizimi, ya'ni uning moliyaviy hisobotlari aniq va to'g'ri bo'lishlikni taqozo qiladi. Ushbu zaruriyat hisobotlardan tahlil jarayonida foydalana oladigan iqtisodchi va hisobchilarining mavjudligini taqozo qiladi" [1].

Iqtisodchi olim E.A.Akramovning fikriga ko'ra "Respublikada moliyaviy hisob va hisobot buyicha bir kancha ishlar kilingan, lekin qilingan ishlar xali xalkaro andozalarga to'liq javob bermaydi....

korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshkaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti xisoblanadi" [2].

Xorijlik olim G.V.Saviskaya fikricha, "korxona moliyaviy holati xo'jalik sub'ekting o'z faoliyati, o'zining to'lovga qobiliyatligi va investitsion jozibadorligini saqlab turish imkoniyatini aks ettiradi" [3].

Moliyaviy tahlilga oid iqtisodiy adabiyotlarda "Korxona moliyaviy holatiga baho berishda balans passivining tuzilishini tahlil qilish, ya'ni korxona mulkidagi o'z mablag'lari (xususiy kapital) va chetdan jalb qilingan qarz mablag'larining hissasi aniqlanishi lozim. Bu manbalarning optimal nisbatga ega bo'lishi korxonaning istiqbolini belgilaydi" [4] deyilgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.Z.Avlokulovning fikricha, "xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tashkilotni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, kompaniyalar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aksiyadorlar oldidagi hisobdorligi, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarining joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi" [5].

Iqtisodchi olim A.X.Shoalimovning fikricha "Tahliliy ko'rsatkichlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvolini aniqroq o'rganish, bilish imkon tug'iladi" [6]. Zero, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyulda qabul qilingan «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatları va boshqa

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-son qarori [7] ning qabul qilinishi ham xo'jalik sub'ektlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etish dolzarbligini belgilab berdi.

A.A.Karimov o'z tadqiqotlarida "iqtisodiy tahlil boshqaruvning o'ziga xos bir funksiyasi ekanligini ta'kidlagan holda, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini miqdor va sifat jihatidan ob'ektiv foydalanish, resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda xo'jalik yuritishning samaradorligini oshirishni ta'minlaydi" [8] deb hisoblaydi.

Iqtisodchi N.Xajimuratov [9] tomonidan esa moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etilishi jarayoni auditining metodologik masalalari tadqiq etilgan.


Iqtisodchi olim dotsent M.S.Tulaev amaldagi "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" shaklidagi 25 ta satrni qisqartirish va ularni 20 taga tushirish natijasida xalqaro standartlarga moslashtirish"[10]ni taklif qilgan.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxonalar faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash va ulardan amaliyotda foydalanish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

#### **Material va metod.** Tadqiqot

davomida nazariy va amaliy o'rghanish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik hamda omilli tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy hisobot tahlilida qo'llaniladigan usul va amallarni aniqlashtirish, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash orqali auditorlik xulosasi ishonchligini ta'minlashga qaratilgan.

**Natijalar.** Bizningcha korxonalar faoliyatini tahlil etish orqali ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashtirish, ular mulk va mablag'laridan samarali foydalanish, ular foydasini oshirish hamda xarajatlarini kamaytirish hamda ular faoliyatida hisob-kitoblarni mustahkamlash yo'llarini aniqlash mumkin. Shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy faoliyatini tahlil etishda korxona moliyaviy holati va uning o'zgarishini baholash, korxona to'lov qobiliyatini aniqlash, korxona moliyaviy holati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho berish, korxona moliyaviy holatini mustahkamash imkoniyatlarini o'rghanish, korxona moliyaviy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirish va boshqalar.



**1-rasm. Moliyaviy hisobot tahlili usullari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

Auditorlik tekshiruvida korxona moliyaviy hisobot ma'lumotlari quyidagi usullar yordamida tahlil etiladi (1-rasm).

Mazkur usullar yordamida auditor moliyaviy hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlarni davrlar bo'yicha o'zgarishi, ko'rsatkichlar tarkibiy tuzilishi, o'zar o'xhash yoki mos ko'rsatkichlarni taqoslash orqali ular o'rtaсидаги aloqa (bog'liqlik)lar o'рганилади. Tahlil jarayoni turli koeffitsient va ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyat samaradorligini baholash va ular moliyaviy ko'rsatkichlari o'zgarishlarini aniqlash auditorlik tekshiruvi uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Mazkur tizim korxonalarini faoliyatini tahlilini amalga oshirish nafaqat auditorlik tashkilotlari, balki davlat tizimi tashkilotlari, xususan Energetika vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimidagi tashkilotlar boshqaruv organlari uchun ham muhim sanaladi.

Auditor, tekshirilayotgan sub'ekt rahbariyatining normativ-huquqiy

hujjalarda talab etilgan ko'rsatkichlarni aniqlashga manfaatdorligini inobatga olgan holda o'ргanilayotgan korxona faoliyatida moliyaviy sog'lomlashtirish tadbirlariga ehtiyoj darajasini aniqlash, korxonalar ijo etuvchi organi faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash, tizim korxonalarini amaldagi biznes rejalarining moliyaviy sog'lomlashtirish me'yorlariga muvofiqligini baholash, moliyaviy sog'lomlashtirish yo'l xaritalarini ishlab chiqish va uning bajarilishini monitoring qilish, tizim korxonalarining mukammal yo'l xaritalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga xo'jalik birlashmalari hamda hokimliklarni jalg qilish, davlat ishtirokidagi korxonalarga tashqi qarz mablag'larini jalg etish holatini baholash, tekshirilayotgan korxonada moliyaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini korporativ boshqaruv va bankrotlik jarayonlarida qo'llanilishini ta'minlash imkoniyatlarini beradi. Yuqorida muhim vazifalar auditorlar tomonidan tekshirilayotgan korxonada ham auditorlik turdosh xizmatlari sifatida amalga oshirilishi hamda tekshirilayotgan korxona faoliyat samaradorligini baholash maqsadlarida o'ргanilishi mumkin. Ushbu tahliliy jarayonda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanib, baholash natijalariga ko'ra auditor fikri shakllantiriladi (1-jadval):

### 1-jadval

#### Moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxonalar faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlari<sup>2</sup>

№	Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkichni aniqlash uslubiyati	
		I. Likvidlik ko'rsatkichlari	
1	Joriy likvidlik darajasi	joriy aktivlar	joriy majburiyatlar
2	Tez likvidlik darajasi	(joriy aktivlar - tovar moddiy zahiralar)	joriy majburiyatlar
3	Kunlik kreditor qarzlar	(mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi)	

<sup>2</sup> Normativ-huquqiy hujjalalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

	aylanmasi	qarzdorlik*365)  sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi
4	Kunlik debitor qarzlar aylanmasi	(xaridor va buyurtmachilarning qarzi*365)  (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)
<b>II. To‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari</b>		
1	Qarz (majburiyatlar)ning kapitalga nisbati	jami majburiyatlar*  jami o‘z mablag‘lari
2	Qarz (majburiyatlar)ning aktivlarga nisbati	jami majburiyatlar*  jami aktivlar
3	Majburiyatlarning EBITDAga nisbati	jami majburiyatlar  (sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi)
4	EBITDAning to‘lovlariga nisbati	qarz  (sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi)  (foizlar shaklidagi qarz xarajatlar + qarzning asosiy to‘lovi)
5	Foiz xarajatlarining qoplanishi	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar)  foizlar shaklidagi xarajatlar
<b>III. Daromadlik ko‘rsatkichlari</b>		
1	Sof foyda marjasি %	sof foyda (zarar)  (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)
2	Operatsion foyda marjasি %	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar)  (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)
3	Aylanma mablag‘larning rentabelligi %	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi)  (joriy aktivlar — joriy majburiyatlar)
4	Aktivlarning rentabelligi %	sof foyda (zarar)  jami aktivlar
5	Kapitalning rentabelligi %	sof foyda (zarar)  jami o‘z mablag‘lari

6	Xarajatlarning qoplanishi	(mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)  (sotilgan mahsulot(tovar, ish va xizmat)larning tannarxi + boshqa operatsion xarajatlar)
---	---------------------------	---

#### IV. Tashqi qarzga bog'liq ko'rsatkichlar

1	Tashqi qarzning majburiyatlarga nisbati	jam'i tashqi qarz*  jam'i majburiyatlar*
2	Xorijiy valyutadagi tashqi qarzning jam'i qarzga nisbati	xorijiy valyutadagi tashqi qarz  jam'i qarz

#### V.Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK)

1	Sof tushum prognozining bajarilishi (ming so'm)	Tovarlarni, xizmatlarni yoki ishlarni sotishdan olingan daromadlar. (2-sonli balans shakli bo'yicha sof sotishdan tushgan tushum - 010-satr) Kompaniyaning joriy davr uchun biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari
2	Sof foyda (zarar) prognozining bajarilishi (ming so'm)	Soliqdan oldingi foyda - Soliqlar (Balansdagi sof foyda (zarar). shakl raqami 2, qator - 270) Kompaniyaning joriy davr uchun biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari
3	Aktivlar rentabelligi (%)	<b>Krr \u0003d Pudn / Asr</b> , bu erda: <b>Pudn</b> - daromad solig'i oldidan foyda - (5-ustun, 240-satr yoki zarar - «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» No2 shaklning 6-ustunidagi 240-satrda minus belgisi bilan); <b>Asr</b> - aktivlar qiymatining o'rtacha arifmetik qiymati, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: <b>Asr \u0003d (A1 + A2) / 2</b> , bu erda: <b>A1</b> - aktivlarning davr boshidagi qiymati ("Buxgalteriya balansi" 1-shaklning 400-qatorining 3-ustunida); <b>A2</b> - davr oxiridagi aktivlarning qiymati ("Buxgalteriya balansi" 1-shaklning 400-qatorining 4-ustunida)
4	Mahsulot tannarxini pasaytirish (belgilangan topshiriqdan foizda)	$3 = \frac{sp}{TP} \times 100$ , bu erda, 3 - 1 so'm tovar mahsulotining tannarxi, Sp - tovar mahsulotining umumiyligi tannarxi yig'indisi, <b>TP</b> - joriy narxlarda sotiladigan mahsulotlar miqdori, (2-sonli balans shakli bo'yicha mahsulot (ishlar va xizmatlar) tannarxi, 020-satr)
5	Imkoniyatlardan foydalanish darajasi	$K_{ularni} = Q_{fakt.} / ((Q_{dizayn.} - (Q_{ijarasi.} + Q_{konservalangan.})), bu yerda:$ <b>Q fakt.</b> - hisobot davridagi mahsulotning (xizmatlarning) qiyoysi qiyamatdagi haqiqiy hajmi; <b>Q dizayn.</b> - asosiy texnologik asbob-uskunalardan to'liq foydalanish va belgilangan ish rejimiga rioya qilish bilan erishilishi mumkin bo'lgan qiyoysi qiymat ko'rinishida belgilangan vaqt oraliq'ida mahsulot (xizmatlar ko'rsatish)ning maksimal hajmi ; <b>Q ijarasi</b> - ijaraga olingan quvvatlarga tegishli ishlab chiqarish hajmi (taqqoslash mumkin);

		<b>Q<sub>konservalangan</sub></b> . - ishlab chiqarish hajmlari (taqqoslash mumkin) mothball quvvatlariga tegishli
6	Qoplash koefitsienti (to'lov qobiliyati)	<b>K<sub>pl</sub></b>   <b>A<sub>2</sub></b> / ( <b>P<sub>2</sub></b> · <b>D<sub>o</sub></b> ) , bu erda: <b>A<sub>2</sub></b> - aylanma mablag'lar (inventarizatsiya, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalar), aktivlar qoldig'ining II bo'limi, 390-satr; <b>P<sub>2</sub></b> - passivlar, balansning passiv qismining II bo'limi, 770-satr; <b>D<sub>o</sub></b> - uzoq muddatli majburiyatlar (buxgalteriya balansining 490-qatori)
7	Moliaviy mustaqillik koefitsienti	<b>K<sub>ss</sub></b> = <b>P<sub>1</sub></b> / ( <b>P<sub>2</sub></b> - <b>TO</b> ), bu erda: <b>P<sub>1</sub></b> - o'z mablag'lari manbalari (ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar), balansning passiv qismining I bo'limining natijasi, 480-satr; <b>P<sub>2</sub></b> - passiv, balansning passiv qismining II bo'limi, 770-satr; <b>TO</b> - uzoq muddatli majburiyatlar (buxgalteriya balansining 490-qatori)
8	Dividendlarni hisoblash (ming so'mda )	Biznes-rejada ko'rsatilgan rejani amalga oshirish
9	Eksport parametrlarining bajarilishi ko'rsatkichi (belgilangan topshiriqdan foizda)	Eksport parametrlarining haqiqiy pul ko'rsatkichining bashorat qilingan e'lon qilingan qiymatga nisbati
10	Mahalliylashtirish indikatorining tugallanishi (%)	Joriy davrda tarmoq va (yoki) hududiy mahalliylashtirish dasturlarida aniqlangan loyihalarning amalda amalga oshirilishi foizi. Shuningdek, tovarlar importi darajasi mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan bir xil
	Investitsiya dasturlarini amalga oshirish (%)	Investitsiya dasturida belgilangan maqsadli (prognoz) ko'rsatkich, investitsiya dasturi doirasida amalda o'zlashtirilgan mablag'lar foiz vakilligi
11	Chet el valyutasining mustaqillik koefitsienti	Import va eksport nisbati. Import qilingan tovarlar uchun to'lovlar tovar eksporti bilan qoplanishi darajasi. Agar qiymat 1 dan kichik bo'lsa, u ijobiy, 1 dan katta bo'lsa, u salbiy hisoblanadi
12	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi (TSR - Jami aksiyadorlar qaytish)	(davr oxiridagi aksiyaning narxi - davr boshidagi aksiyaning narxi + davr davomida to'langan dividendlar)/(aksiyaning davr boshidagi narxi)

Ta'kidlash joizki, tekshirilayotgan sub'ekt moliaviy hisobotining ko'rsatkichlariga asoslangan yuqoridaqi tahlil natijalari auditor fikrini shakllantirishda ham foydalilanadi. Jumladan, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish

tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi 2022 yil 9 martdagи 107-son qaroriga muvofiq, davlat unitar korxonalarining yil yakunlari bo'yicha auditorlik tekshirushi xalqaro auditorlik tarmoqlariga va xalqaro uyushmalarga a'zo auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga

oshirilishi belgilangan. Shuningdek, mazkur qarorda davlat unitar korxonalari tashqi qarzlarni jalg qilishda ishchi organga hisobot yili yakunlari bo'yicha auditorlik xulosasining nusxasi taqdim etishlari lozimligi, o'z navbatida ishchi organ davlat ishtirokidagi korxonaning oxirgi yillik moliyaviy hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi mavjud emasligi yoki salbiy xulosa mavjudligi hollarida davlat unitar korxonalariga tashqi qarzlar jalg qilinishiga ruxsat etilmasligi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 2015 yil 28 iyuldag'i 207-son qarorida esa samaradorlikning muhim ko'rsatkichi (SMK) va samaradorlikning yig'indi ko'rsatkich(SYK)larini aniqlash jarayoni auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlarini ko'rsatish yoki auditorlik shartnomasiga alohida xizmat turi sifatida kiritish orqali aniqlanishi belgilangan. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida moliyaviy hisobot ma'lumotlariga tayangan holda yuqoridagi tahliliy ko'rsatkichlar asosida amalda faoliyat ko'rsatmayotgan, rentabellik darajasi past va zarar natija bilan ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

**Xulosa.** Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida amalda faoliyat ko'rsatmayotgan, rentabellik darajasi past va zarar natija bilan ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari hamda ular moliyaviy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlanadi.

1. Bugungi kunda korxonaning

moliyaviy ahvolini 10 daqiqada ekspress-tahlil qilish imkoniyatlari ega bo'lgan tayyor Excel-modellardan foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur algoritm va uslubiyatdan foydalanishi korxonaning to'lovga layoqatliligin, uning moliyaviy qaltisliklari va barqarorligini «24/7» rejimida nazorat qilish imkonini beradi.

2. Jahon amaliyotida korxonaning likvidlilik va to'lovga qodirlik bilan bog'liq qaltisliklarini baholash, moliyaviy oqimlarni rejalashtirish maqsadlarida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga muvofiq beshta ko'rsatkich (EBITDAga nisbatan qarz, aktivlarga nisbatan debtorlik qarzi, o'z aylanma mablag'larining aktivlardagi ulushi, qarz kapitalning o'z kapitaliga nisbati va yalpi foydaning sof foydaga nisbati) nazorat qilib boriladi.

3. Moliyaviy hisobotlar tashqi foydalanuvchilar uchun muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlar moliyaviy holat, moliyaviy natijalar va pul oqimlari to'g'risidagi axborotlarni aks ettirib, faoliyatning barqarorligi xususida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi. Bunda, ularga qo'yiladigan eng asosiy talab ularda aks ettirilgan axborotlar ishonchliligidir. Shu bois, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar avvalo, moliyaviy hisobotlarining ishonchliligin ta'minlashi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

4. Moliyaviy hisobot auditida tahliliy amallar usulining qo'llanilishi dalil to'plash va auditor fikrini shakllantirishda eng ko'p qo'llaniluvchi usul hisoblanadi. Mazkur usuldan foydalanishi auditorlik tekshiruvlariga sarflanidan vaqt va xarajatni qisqartirish imkonini beradi.

5. Auditorlik tekshiruvlarida moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida amalda faoliyat ko'rsatmayotgan, rentabellik darajasi past va zarar natija bilan ishlayotgan

korxonalar moliyaviy faoliyatini sinchkovlik bilan tahlil etish orqali, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish hamda faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlashtirilishi maqsadga muvofiq.

6. Moliyaviy hisobot ishonchlilagini ta'minlash uchun hisobot ko'rsatkichlariga asosan korxona faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini tahlil etish, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarida firibgarlik holatlarining ta'sirini aniqlash, hisobot ko'rsatkichlari asosida faoliyat

uzluksizligini baholash, korxonaning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi ma'lumotlarining ishonchlilagini muntazam baholab borish maqsadga muvofiq.

7. Korxona faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tahlil etish orqali korxona boshqaruvi qarorlarining natijadorligiga erishish mumkin va aksincha, korxonada qabul qilingan boshqaruvi qarorlaridan ko'zlangan samaraga erishilmasligi korxona faoliyatining samaradorligini to'g'ri va yetarlicha tahlil etilmaganligining oqibatidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. M.Q.Pardaev, A.N.Xolikulov, H.A.Raximov, I.R.Berdikulova, S.A.Babanazarova. Korxonalar moliyaviy hisobotlari tahlili. Samarqand, SamISI, 2022. – 84 bet.
2. E.A.Akramov. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. Toshkent - «Moliya» nashriyoti - 2004
3. Г.В.Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. Москва, Инфра-М, 2009, 538 стр.
4. Sh.A.Tojiboeva. Moliyaviy tahlil-2. Darslik.–T.: Innovatsion rivojlanish, 2021.
5. A.Z.Avlokulov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini aks ettirish xususiyatlari. // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.
6. A.X.Shoalimov, Sh.I.Ilxomov, Sh.A.Tojiboeva. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. – T.: Sano-standart, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sod qarori. 2015 yil 28 iyul. www. lex uz
8. A.A. Karimov. Korporativ boshqaruvi tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun èzilgan dissertatsiya. Toshkent, 2009.
9. N.Sh. Xajimuratov. Moliyaviy hisobot audit: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Impress media, 2021. – 236 b.
10. M.S.Tulaev. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini xalqaro standartga muvofiqlashtirish. – T.: "Mustaqillik yillarda O'zbekiston moliya-bank tizimining rivojlanishi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami. TDIU, 2016 yil 25 noyabr, 367 b.